

## Bayramingi muborak bo'lsin lo'bar qizlar

Oilani ham, jamiyatimizni ham birlashtirib, unga fayzu barokat kiritadigan xonadonlarimizni mehr-muhabbat, nafosat, ezgulik nuri bilan munavvar qiladigan zotlar ham aslida mo'tabar onalarimiz, munis opa-singillarimizdir. Shu sabali ham 8-martni aynan ayollarimiz kuni ya'ni Halqaro xotin-qizlar kuni deb, keng nishonlaymiz.



Ushbu bayram bugungi kunda yurtimizda keng nishonlanmoqda. Bugun Yer resurslarini boshqarish fakulteti talaba-qizlarga ham bayram munosabati bilan universitetimiz rektori hurmatli professor, B.Mirzaev tomonidan yo'llangan bayram tabrigi o'z egalariga topshirildi. Chindan ham qizlarimizning oila-jamiyatda tutgan o'rni beqiyos.



Oqila go'zal ayollar o'zlarining g'amxo'rliqi, mehribonligi, qalbi daryoligi bilan oiladagi, qolaversa, butun jamiyatdagi muvozanatni, poklik, halollik, samimiyat va adolat muhitini saqlab turadilar. Ulug'donishmandlar Vatanga eng munosib ta'rif izlaganda, uni Ona siymosiga qiyos etganlarida katta ma'no bor.



Dunyoda «muqaddas» degan so'zga eng munosib zot ham - Onadir. Darhaqiqat, Onani qizlarni e'zozlash-bizning millatimiz, xalqimiz uchun oliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan fazilat. Chunki ayollarni qancha ulug'lasak, hayotimizning chirog'i, umrimizning guli deb e'zozlasak, demakki, oilamizni Vatanimizni e'zozlagan bo'lamiz. Yana bir bor barcha qizlarimizni bayramlari bilan tabriklaymiz.



YeRB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini Hurriyat Eshova axboroti